



IJODIY MANZARALAR CHIZISH BO'YICHA AMALIY VA NAZARIY TAVSIYALAR

¹Komoldinov Sirojiddin Jomoldin o'g'li

NamDU, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası o'qituvchisi,

²Boboxonova Mexribon Asadbek qizi

NamDU, TSMG yo'nalishi 2-kurs talabasi.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7787663>

ARTICLE INFO

Received: 22th March 2023

Accepted: 29th March 2023

Online: 31th March 2023

KEY WORDS

Yorug'lik, fon, kontrast, xajm, dog', refleks, plan, rang, yorug' va soya, natura, motiv, plastik, detal, gorizontal, vertikal, kvadrat, tus, tonal, sovuq ranglar, rang tuslari, manzara, etyut, kompozitsiya, kolorit, xarakter.

ABSTRACT

Ushbu maqolada manzara janri va uning o'ziga xos jihatlari haqida so'z boradi. Manzara ishlashning qonuniyatlari, ishlash bosqichlarining ketma-ketligi taxlil qilingan. Manzara ishlashda rang munosabatlari rassomlar asarlari taxlili, hamda Shundan kelib chiqqan xolda yangi rangtasvir kompozitsiyalari uchun ilmiy va amaliy tavsiyalar berilgan.

Har qanday ijodkor o'tmishdagi rangtasvir sana'ti ustalari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyatini xam o'rganadi. Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalari mazmuni va g'oyaga bo'ysinish kompozitsiyaning asosiy qonunlari hisoblanadi. Bu qonunning belgilari E.Kibrikning kitobida to'la va chuqur analiz qilib berilgan. Kompozitsiyada yaxlitlik belgisi qonuniga rioya qilinganligi sababli, san'at asari bo'linmas bir butun bo'lib ko'rinadi. Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, xajm, «dog'», oraliq xarakter nusxa, imo-ishora bilan ifodalanadi. Misol tariqasida I.Repinning «Krestniy xod v Kurskoy guberni» kartinasi bir qarashda yaxlit «dog'» shaklida ko'rinadi. Manzara kompozitsiyasi ishlashni ko'pincha oddiygina ommabop ish deb hisoblaydilar, rassomdan kuchli malaka talab etmaydigan ish deb noto'g'ri fikrlaydilar. Vaholanki, aslida manzara rangtasvirida chuqur obrazli ko'rinish yaratish bu oson emas, va rassomga u chuqur ijodiy qoniqish xosil qiluvchi hissi yot beruvchi.

Manzara kompozitsiyasi ustida ishlash eng qiziqarli e'tibor tortuvchi motiv tanlashdan boshlanadi. Bu ma'noda esa eng avvalo etyudlar bajarishda yoki manzara materiali ustida ishlagandi asosiy vazifalarni belgilab olish ham muhimdir. Ochiq havoda (plenerda) rangtasvir bajarishga o'tishda kichik etyudlar chiziladi va eng avvalo undagi rang munosabatlari topiladi. Kichik etyudlarda qismlarning tarqoqligi yo'qotiladi, negaki rassom naturani aynan ko'chirmaydi. Dastlab etyudlar uchun uncha murakkab bo'lmagan ko'rinishlar olinadi, so'ngra tobora murakkablashtirib borilaveradi.



Qisqa muddatli etyudlarni bajarishda turli maqsadlar ko'zlanishi mumkin. Birinchi holatda etyud uzoq muddatli ishdan avval bajariladi va naturaning rang munosabatlari o'rganiladi, rang haqidagi dastlabki tasavvur shakllanadi. Rang tuzilishi yakdilligi muvofiqligini belgilash uchun ham etyud chizish muhimdir. Bu maqsadlar uchun qandaydir rang ustunlik qilishi kerak. Etyudlar uchun ashyolar iliq va sovuq ranglar muvofiqligida beriladi. Doimiy mashq qilib boorish oxir oqibatda kuzatuvchanlik, rangni ko'rish, tasvir vositalarini maxorat bilan qo'llashga olib keladi. Naturaning har bir ob'ekti bu yaxlit rangtasvir asar qismidir, uning rang jilosi uning umumiy idroki va tasvirida vujudga keladi.¹

Har qanday tasvir mayda qismlardan emas, yahlitlikdan boshlanadi. Dastlab katta umumiy shakl topiladi, keyin esa mayda bo'laklari ishlanadi. Shu munosabat bilan tasvirlash jarayoni qoidasi mavjud: umumiydan-mayda bo'laklarga va yana umumlashtirishga. Manzara etyudini ishlash yahlit asosiy munosabatlarni qurishdan manzaraning asosiy obyektlari (osmon, yer, suv, old, o'rta va olisdagi ko'rinishlari bilan) orasidagi rang farqlaridan boshlanadi. Manzaraning obyektlaridagi asosiy munosabatlarning to'g'ri olinishi keyingi rang qurilishi, mayda bo'laklarni tasvirlashda ishni osonlashtiradi. Agarda asosiy rang munosabatlari noto'g'ri topilgan bo'lsa, reflekslar va ranglardagi nozik farqlar, mayda qismlarni qanchalik sinchiklab (astoydil) bajarilmasin, mazmunli tasvir hosil bo'lmaydi.²

Etyud yozish manzara kartinasi ustida ishlashga nisbatan albatta yengilroqdir. Biroq etyudga nisbatan ham ancha jiddiy munosabatda bo'lib, tevarak atrof-muhit haqida tasavvurlarini kengaytirish va uni kasbiy mahoratini oshirish mukammallashtirish vositasi sifatida qarash kerak.

Mashhur manzarachi rassomlarning ijodi bizni yangi motivlari bilan o'ziga tortadi. Unda tomoshabin ustaning shaxsini aksini ilg'ab oladi, uning individual (pocherki) chizgisi, bu bilan u o'zini hissiyoti, kayfiyati estetik g'alayonlarining, tabiatning ta'sirida go'zallik ta'sirida, uyg'unlashgani yaqqol namoyon bo'ladi.

Mashhur manzarachi rassomlarni barcha jihatlarini o'zlashtirish ularga to'liq bog'lanib qolish, taqlid qilish, begona kompozitsiyalarga suyanib qolish yaramaydi.

Tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilish ko'nikmasi, yangilikni idrok etish bizning davrimizga xos harakterni topish ko'plab rassomlar ijodida ko'rish mumkin.

Ayrim yosh rassomlar kompozitsiyadagi chiziqli yechimni o'rnini to'liq baho bermaydilar, ular asosiy narsa rangtasvirda bu kolorit deb hisoblaydilar. Bu noto'g'ri. Manzara rangtasvirida tepa teng chiziqli yechim, rangtasvir va kompozitsiya zarur hisoblanadi.

Naturadagi eng qiziqarli motiv topib olingandan so'nggina kompozitsion izlanishlar boshlanadi. Etyudni o'lchami formati aniqlanadi.

Odatda tajribali rassomlar tayyorlab olingan formatdagi holatda ishlash vazifasini qo'yadilar. Bu xolatda chizuvchining atrofida bor bo'lgan tabiat ko'rinishi motivini joylashtirishga to'g'ri keladi.

¹ Rustam Hudoyberganov Tasviriy san'atda rang 57-bet Toshkent

² S.Abdirasilov, N.Tolipov,



Boshqa rassomlar esa fikriy g'oyaviy izlanishlar olib boradi, tabiatni kuzatar ekan, ko'rish nuqtasini o'zgartiradi. Bunda ramka kuzatkichdan foydalaniladi. Undan zaruruy (gorizontal, vertikal yoki yaqin kvadratga) format topishga yordam beruvchidir. Shunga qarab material asos (xolost, qog'oz yoki karton), odatda bu etyudga chizishdan avval tayyorlab olinadi. Yana shuni ham aytish mumkinki, yordam vositalarisiz ham, ko'z chamasi bilan zaruriy manzara qismini tanlab olish mumkin. Manzara kartina yaratish mo'ljallanar ekan naturadan chizish bilan rangtasvirchining kuzatganlari va taassurotlari aks etadi.

Kartina ustida ishni tugallash bosqichida rassom alohida vazifalarni bajarishga ya'ni qiziqib ketishi mumkinki, alohida detallarni tus va tonal munosabatlarni berishda bu esa kompozitsiyani qo'pol va quruq bo'lib qolishiga kayfiyatni o'zgarib ketishiga olib keladi.

Xulosa o'rnida shularni aytishimiz mumkinki kompozitsiyaga yaxlitlik qonuni prizmasi orqali qarash va kompozitsiyaning bo'laklarga ajralib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Manzarani ishlash jarayonida o'z o'lkamizga cheksiz muxabbatni his qilib, uning go'zalligini ifodalashda qo'limizdan kelganicha baholi qudrat xarakter qilamiz.

References:

1. Rustam Hudoyberganov Tasviriy san'atda rang 57-bet Toshkent 20
2. S.Abdirasilov, N.Tolipov, N.Oripova Rangtasvir 89 bet Toshkent 2006
3. Komoldinov Sirojiddin Jomoldin o'g'li International Conference on Research Identity, Value and Ethics Rangtasvirda manzara ishlashning amaliy ahamiyati
4. Komoldinov Sirojiddin Jomoldin o'g'li Vol. 2 No. 12 (2022): Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy-amaliy jurnali jonajon o'lkam mavzusida manzara chizish bo'yicha amaliy tavsiyalar.
5. A.Amanullayev, S.Komoldinov ISSN 2181-6883 Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 5-son Buyuk rangtasvirchi musavvirlar asarlarini taxlili asosida mavzuvli kompozitsiya yaratish.
6. D.A.Nazilov, I.V. Dmitriyeva, N.X. Xadjibayeva. Kompozitsiya asoslari Toshkent «Yangi asr avlodi»2009